

**O‘ZBEKISTONDA INTELLEKTUAL MULK: ISLOHOTLAR SARI**

Muallif: Sanjarbek Tursunov

Adliya vazirligi bosh maslahatchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda so‘nggi yillarda intellektual mulk sohasida amalga oshirilgan tizimli islohotlar tahlil etiladi. Raqamlashtirish, huquqiy himoyani kuchaytirish va xalqaro hamkorlik yo‘nalishlarida erishilgan yutuqlar miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida yoritiladi. Maqolada soha rivojlanishining asosiy tendensiyalari va kelajakdagi imkoniyatlar ham ko‘rib chiqiladi.

**Kalit so‘zlar:** intellektual mulk, patent, tovar belgisi, raqamlashtirish, kontrafakt mahsulot, huquqiy himoya, innovatsiya.

**Kirish**

Intellektual mulk – zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri. Ixtirolar, tovar belgilari, dasturiy ta‘minotlar va boshqa intellektual mulk obyektlarini huquqiy jihatdan himoya qilish innovatsion rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviylashayotgan dunyoning a‘zosi sifatida O‘zbekiston Respublikasida ham so‘nggi yillarda bu sohadagi islohotlar jadal sur‘atlarda amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan, 2022–2025 yillar mobaynida intellektual mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlari to‘liq raqamlashtirilib, aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi. Shu asnoda, mazkur maqolada erishilgan yutuqlar, amalga oshirilgan tizimli o‘zgarishlar va kelgusidagi istiqbollar tahlil qilinadi.

**I. Raqamlashtirish va xizmat ko‘rsatish tizimining takomillashtirilishi**

Intellektual mulkni ro‘yxatdan o‘tkazish jarayonlarini raqamlashtirish sohadagi eng muhim o‘zgarishlardan biri bo‘ldi. Bugungi kunda huquq egalari ariza topshirishdan tortib, guvohnoma yoki patent olishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni onlayn tarzda amalga oshirishlari mumkin.

Raqamlashtirish samarasi bevosita natijalarda o‘z aksini topmoqda. Yorqin bir misol sifatida, 2025-yilda intellektual mulk obyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha topshirilgan talabnomalar soni 2022-yilga (20 ming) nisbatan 55 foizga oshib, 31 mingtaga yetdi. Bir yil davomida 25 000 dan ortiq guvohnoma va patentlar elektron hujjat shaklida taqdim etildi. O‘z navbatida, ushbu ko‘rsatkich avvalgi yillarga nisbatan sezilarli o‘sishni ko‘rsatadi.

Shuningdek, islohotlar ko‘lamiga sanoat mulki obyektlarini ekspertizadan o‘tkazish muddatlarining qisqartirilishini ham kiritsak bo‘ladi.

Xususan, EHM uchun dasturlarni ro‘yxatdan o‘tkazish muddati 1 oydan atigi 10 kunga, tovar kelib chiqqan joy nomi ekspertizasi muddati esa 6 oydan 1 oyga qisqartirildi.

Bu esa, huquq egalari, xususan, tadbirkorlar uchun vaqt va resurslarni tejash imkonini berdi.

Bundan tashqari, ixtirolarga patent bo‘jarini 6 oygacha kechiktirib to‘lash hamda 90 foizgacha chegirma bilan to‘lash imkoniyatining berilishi, sohadagi navbatdagi yengillik bo‘ldi. Natijada, 2024-yilda berilgan patentlar soni 829 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 918 taga ko‘tarildi.

**II. Huquqiy himoya tizimining kuchaytirilishi**

Intellektual mulkni samarali huquqiy mexanizmlar bilan himoya qilish tizimini takomillashtirish islohotlarning ikkinchi muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Bu borada ham bir qator kompleks choralar amalga oshirildi.

Kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashishda davlat organlarining faoliyati jonlantirildi. 2022–2025 yillar davomida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarga nisbatan 4 559 ta huquqiy ta'sir choralari (ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma hamda bajarilishi majburiy taqdimnomalar) qo'llanildi.

Ma'muriy jarimaning minimal miqdori BHMning 1 baravaridan 5 baravariga, maksimal miqdori esa 10 baravaridan 30 baravariga oshirildi.

Bundan tashqari, kontrafakt mahsulotlarni xatlash va musodara qilish tartibi belgilanib, Jahon Savdo Tashkilotining Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitimi (TRIPS) talablaridan kelib chiqib, intellektual mulk obyektlaridan noqonuniy foydalanishga nisbatan jinoiy javobgarlik chorasi doirasi kengaytirildi.

Bundan tashqari, huquq egalari moliyaviy manfaatlarini ko'zlagan holda, huquqbuzarlardan huquq egalari hisobiga bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravaridan 1000 baravarigacha miqdorda tovon puli undirish amaliyoti joriy etildi.

Bojxona organlariga o'z tashabbusiga ko'ra ("ex officio") intellektual mulkni himoya qilish vakolatining berilishi ham sohadagi muhim yangilik bo'ldi.

Bu orqali, 2024–2025 yillar davomida **17,9 mlrd** so'mlik kontrafakt tovarlarning importiga chek qo'yildi. Bu raqam mamlakatning ichki bozorini kontrafakt mahsulotlardan himoya qilishda erishilgan jiddiy natijadir.

Shuningdek, qonunchilikka o'zgartirish kiritilgan holda farmatsevtika vositalari va biologik faol qo'shimchalar ro'yxatdan o'tkazishda intellektual mulk huquqlariga rioya etilishini nazorat qilish tartibi joriy qilindi.

Natijada, 2025-yil davomida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga nomuvofiqlik sababli 23 turdagi dori vositalari va biologik faol qo'shimchalarni ro'yxatdan o'tkazish rad etildi.

Sohadagi kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida bojxona, prokuratura, sud hamda boshqa manfaatdor organlar va tashkilotlarning 2,4 mingdan ortiq xodimlari, shuningdek 3,5 mingdan ortiq tadbirkorlar uchun seminar-treninglar, o'quv mashg'ulotlari va vebinarlar tashkil etildi.

Ta'kidlash lozimki, mazkur tadbirlarga Butunjahon Intellektual MulK tashkiloti (BIMT), AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Gruziya va Koreyadan xorij ekspertlari jalb etildi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda intellektual mulk sohasidagi raqamlashtirish orqali fuqarolar va tadbirkorlarga qulay xizmat ko'rsatish tizimi yaratildi, ekspertiza muddatlari sezilarli qisqartirildi, ro'yxatdan o'tkazilayotgan intellektual mulk obyektlarining soni yil sayin ortib bormoqda.

Huquqiy himoya mexanizmlarining kuchaytirilishi, jinoyat va ma'muriy javobgarlikning oshirilishi, bojxona nazoratining kengaytirilishi kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashda sezilarli natijalar bermoqda.

Xalqaro hamkorlik doirasida xorij ekspertlari bilan birgalikda olib borilayotgan o'quv-metodik ishlar ham soha mutaxassislari va tadbirkorlarning bilim darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yuqorida keltirilgan islohotlar O'zbekistonning innovatsion iqtisodiyot yo'lida yanada mustahkam poydevor yaratayotganidan dalolat berib, mamlakatimizning xalqaro maydonda intellektual mulkka yuqori e'tibor beradigan davlat sifatidagi ijobiy imidji shakllanishiga hissa qo'shadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jahon Savdo Tashkilotining Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari bo'yicha bitimi.
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ–221-son qarori
4. Adliya vazirligining 2022-2025-yillardagi hisobotlari